

TURLI GENOTIPLI ECHKILARNING GO'SHTINING KIMYOVIY TARKIBI

Parmanova Dilnoza Mavlanovna

q.x.f.f.d (PhD), katta ilmiy xodim-Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti,
dilnozaparmanova45@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22841713>

Qabul qilindi: 14-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 18-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 19-sentabr 2026-yil

Аннотация:

В статье представлены результаты исследования химического состава мяса местных коз, чистопородных козлов породы Мурсиано-Гранадина, завезённых из-за рубежа, а также козлов породы Мурсиано-Гранадина местной селекции и первого поколения (F_1) гибридов, полученных в результате скрещивания козлов породы Мурсиано-Гранадина с местными козоматками. В ходе исследования изучены показатели химического состава мяса козлов в возрасте 18 месяцев, включая содержание влаги, сухого вещества, сырого протеина, жира и золы. Проведён сравнительный анализ данных показателей у местных коз и F_1 -гибридов.

Ключевые слова:

Мурсиано-Гранадина, порода, местные козоматки, F_1 -гибриды, химический состав мяса, мясная продуктивность, проценты, влага, сухое вещество, сырой протеин, жир, зола.

Постановка проблемы. Mursia-Granada zotli echkilar sut yo'nalishidagi zot hisoblansada Respublikamiz sharoitida yuqori sut mahsuldorlik ko'rsatkichlari bilan bir qatorda so'yim chiqimi 53,0% ni tashkil qilgan holda go'sht mahsuldorligini ham yuqori darajada namoyon qilgan. Ushbu zot sut yo'nalishidagi zot bo'lsada xo'jalikda erkak uloqlar tug'ilishini hisobga olsak, go'sht ishlab chiqarishda ham foydalanish mumkin va bu oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Echkilar go'shtining kimyoviy tarkibini aniqlash ularning go'sht mahsuldorligini baholashda muhim hisoblanadi. Echkilar go'shtining kimyoviy tarkibiga zoti, zotdorligi, jinsi, tirik vazni, oziqlantirish, ozuqa turlari, saqlash omillaridan tashqari boqish usuli, yoshi, harakat faolligi, mushak turi va so'yish oldi stress kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Turli genotipli echkilarida go'shtning kimyoviy tarkibi zot xususiyatlariga qarab o'zgarishi mumkin. Karpat echkilarida namlik 76,92%, oqsil 19,05%, yog' 2,89% va kul 1,07% ni tashkil etgan bo'lsa, Saanen zotida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 76,32; 20,20; 2,31 va 1,10% bo'lgan. Ayniqsa, oqsil va yog' miqdori bo'yicha zotlararo farqlar statistik jihatdan ishonchli bo'lgan ($p < 0,05$) [2].

Turli zotdagi echki go'shti tarkibida namlik 74,6–76,3%, xom oqsil 19,52–20,3%, yog' 2,0–4,1% va kul 0,9–1,0% oralig'ida bo'lishi aniqlangan. Xususan, 8–10 oylik Boer echkilarida oqsil miqdori 20,0–20,3%, yog' 2,0–2,8% ni tashkil etgan, Alpine va Saanen zotlarida esa yog' miqdori 3,9–4,1% gacha yuqori bo'lgan. Bu natijalar go'shtning kimyoviy tarkibida genotip bilan bir qatorda hayvonning yoshi ham muhim omil ekanligini ko'rsatadi [1].

Основные материалы исследования. Mahalliy, chetdan keltirilgan sof zotli Mursia-Granada va Mursia-Granada zot naslli takalar bilan mahalliy echkilarini chatishtirishdan olingan F_1 duragaylarning go'sht mahsuldorligi ko'rsatkichlarini o'rganish borasida taqdiqot natijalari Farg'ona viloyati Usko'prik tumani "Yakkamulla" MFY dagi aholi xonadonlarida olib borildi. Tadqiqotlarda echkilarining o'sishi, rivojlanishi va go'sht mahsuldorligi ko'rsatkichlarini baholash П.И. Викторов tomonidan ishlab chiqilgan zootexnik tajribalarni o'tkazish usullari

hamda umumiy qabul qilingan zootexnik metodikalar asosida amalga oshirildi [3]. Echkilarning so'yim sifatlari va go'sht mahsuldorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar nazorat so'yimi natijalari asosida baholandi. Bunda tirik vazn, so'yim vazni, so'yim chiqimi ko'rsatkichlari hisobga olindi. Olingan ma'lumotlar Microsoft Excel 2010 kompyuter dasturi yordamida variatsion statistika usullarida ishlov berilib, O'rtacha arifmetik qiymat (M) va uning xatosi (m) hamda o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti ($C_v\%$) Н.А.Плохинский (1969) «Руководство по биометрии для зоотехников» qo'llanmasidan foydalangan holda aniqlandi [4].

Tadqiqotlar davomida turli genotipdagi echkilarning go'sht kimyoviy tarkibi laboratoriya sharoitida aniqlanib quyidagi 1-jadvalda bayon qilingan.

Таблица 1 – Turli genotipdagi echkilar go'shtining kimyoviy tarkibi, %

Ko'rsatkichlar	Nazorat (♂ Mahalliy x ♀ Mahalliy)	I tajriba (♂ Mursia-Granada x ♀ Mursia-Granada)	II tajriba F ₁ (♂ Mursia-Granada x ♀ Mahalliy)
Namlik	69,2	67,9	66,9
Quruq modda	30,8	32,1	33,1
Xom oqsil	22,0	21,9	21,6
Yog'	6,8	8,4	10,0
Kul	1,6	1,8	1,5

Tadqiqotlarda har bir guruhdan 3 bosh takada nazorat so'yim o'tkazilib, ularning go'sht namunalari aralashtirilgan holda kimyoviy tarkibi o'rganilgan. go'sht tarkibidagi namlik oqsil, yog' va mineral moddalar nisbati haqida ma'lumot beradi. Namlik go'shtning shirali va yumshoq bo'lishini ifodalaydi. Lekin ushbu ko'rsatkich bilan go'shtning kimyoviy tarkibi haqida to'liq ma'lumot olish imkonini bermaydi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, namlik miqdori bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich nazorat guruhida kuzatilgan bo'lib 69,2% ni tashkil qilgan. Nazorat guruhi ushbu ko'rsatkich bo'yicha tengqurlaridan mos ravishda 1,3 va 2,3% ustunlikka erishgan.

Echki go'shtidan olingan namunani 100% deb olsak, tajribadagi ma'lumotlardan kelib chiqib nazorat guruhida namlik 69,2% ni tashkil qilgan va quruq modda 30,8% ni tashkil qilgan, ya'ni shu ikki ko'rsatkich 100% ni tashkil qiladi. Guruhlarda quruq modda miqdori mos ravishda 30,8; 32,1 va 33,1% ni tashkil qilgan. Namlik va quruq modda nisbati nazorat guruhida 2,25:1, I tajriba guruhida 2,12:1 va II tajriba guruhida 2,02:1 ni tashkil qilgan.

Oqsil miqdori bo'yicha yuqori ko'rsatkich nazorat guruhida kuzatilib, sof zotli Mursia-Granada echkilariga nisbatan 0,1%, duragay echkilarga nisbatan 0,4% yuqori natijalarga erishgan. Yog' miqdori bo'yicha olingan ma'lumotlar ichki yog' bo'yicha olingan natijalarga mutanosib kelishi aniqlandi. yog' miqdori duragay echkilarda yuqori bo'lib, 10,0% ni tashkil qilgan holda nazorat guruhidan 3,2% va I tajriba guruhidan 1,6% ustun bo'lganligi aniqlandi. Kul miqdori bo'yicha olingan ma'lumotlar 1,5-1,8% limit oralig'ida bo'lib yuqori ko'rsatkich I guruh echkilarida past ko'rsatkich duragay echkilarda kuzatilgan.

Выводы. Xulosa qilib aytganda, turli genotipli echkilarda go'sht namligiga bog'liq holda namlik yuqori guruhda quruq modda miqdori kamayib yoki aksincha holat yuzaga kelishi aniqlandi. Namlik va quruq modda nisbati nazorat guruhida 2,25:1, I tajriba guruhida 2,12:1 va II tajriba guruhida 2,02:1 ni tashkil qilgan. oqsil miqdori bo'yicha nazorat guruhi ustunlik qilgan bo'lsa yog' miqdori bo'yicha II tajriba guruhi ustunlik qilganligi aniqlandi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Gawat M., Boland M., Singh J., Kaur L. Goat Meat: Production and Quality Attributes // Foods. – 2023. – Vol. 12, No. 16. – Article 3130/
2. Mendelová A., et al. Meat Quality of the Native Carpathian Goat Breed in Comparison with the Saanen Breed // Animals. – 2021. – Vol. 11, No. 8. – Article 2220. DOI: 10.3390/ani11082220.
3. Викторov П.И., Менькин В.К. Методика и организация зоотехнических опытов. — М.: Агропромиздат, 1991. — 112 с.
4. Плохинский Н.А. "Руководство по биометрии для зоотехников" Москва. 1969 г. 256 с.